

BALET SAN'ATINING O'LMAS OQQUSHI

Zakirova Sabina

**O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
san'atshunoslik yo'nalishi 2-kus talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14616130>**

Rus balet san'atini Anna Pavlovasiz tasavvur qilib bo'lmaydi, yosh Anna sahnaga chiqqanida, tanqidchilar uni yangi Mariya Talyoni deb atashdi.

Anna Matveyevna Pavlova 1881-yil 12-fevralda Sankt-Peterburg yaqinidagi Ligovo qishlog'ida tavallud topgan. Uning otasi Matvey Pavlovich Pavlov askar, onasi Lyubov Fyodorovna esa yozuvchi bo'lgan. Anna oilada yagona qiz edi. Pavlovaning faol tasavvurlari sevgisi uni balet dunyosiga jalb qildi. O'z bolaligini eslab, Anna baletga bo'lgan ishtiyoqini quyidagicha tasvirladi: "Men doimo raqsga tushishni xohlardim, orzu va umidlarimdan havoga qasrlar qurdim". Garchi ular kambag'al bo'lishsa - da, Pavlova va uning onasi Mariinskiy teatrida "Uyqudagi go'zal" spektaklini tomosha qilish imkoniga ega bo'lishdi. Yosh Anna uchun balet spektakliga tashrif buyurish haqiqiy bayram edi. Ko'p yillar o'tgach u bu haqida eslaganda shunday satrlar keltirgan: "Orkestrning ilk notalarida men jim bo'lgandim. Butun vujudim titrab ketgandi. Parda ochilganida esa juda xursand edim. Sahnaga yovuz sehrGAR kalamushlar tortgan aravada chiqqanida yuzimni berkitganimni hali hanuz eslayman". Kichik Anna "Uyqudagi go'zal" balet spektakli so'ngida, malika Aurora singari raqsga tushishni orzu qiladi. Ko'rganlaridan hayratda qolgan yosh qizaloq balet raqqosasi bo'lishga qaror qildi. Uning onasi qizning harakatlarini jon deb qo'llab-quvvatladi. Ikki yil o'tar - o'tmas, Pavlovani Sankt - Peterburgda o'qishga qabul qilishdi. Peterburg imperatorlik balet maktabiga kirish imtihonidan muvaffaqiyatli o'tgach, mashaqqatli mehnat uning taqdiriga aylanadi. U endi raqqosalar singari qat'iy tartib-intizomga amal qilishi kerak bo'lgan. Erta uyg'onardi, sakkiz soat mashg'ulotlarda bo'lardi. Kechki vaqtini spektakllarda o'tkazar edi. Yosh Annaning mashg'ulot yillari qiyin kechdi. Uning qattiq kamonli oyoqlari uzun qo'llari o'sha paytdagi kichik, ixcham balerina tanasi kabi emas edi. Boshqa balerinalar uni "La petite sauvage" (supurgi) kabi nomlar bilan mazax qilishardi. Shunga qaramasdan, tez orada Anna maktabda eng yaxshi talabalardan biriga aylandi. Qirollik balet maktabida Yekaterina Vazem va Pavel Gerdt yosh balerinaning ajoyib qobiliyatiga tez orada ahamiyat berishdi. O'zini san'at olamiga bag'ishlagan va intilish qobiliyatiga ega bo'lgan talaba Pavlova muvaffaqiyatli balet karyerasi uchun shunchaki iste'doddan ko'proq mehnat talab qilinishini bilardi. 1899 - yilda Pavlova Sankt - Peterburg universitetini tamomlagan. Pavlovaning birinchi debyuti "Hisobga olinmagan ehtiyotkorlik" spektakli bo'ldi. Bu balet spektaklida u Fokin bilan birgalikda sahnaga chiqdi. Pavlovaning keyingi ommaviy chiqishlari Mariinskiy teatrida bo'lib o'tdi. Ulardan biri Kristian Ioganson spektaklida "Fir'avnni qizi" baletida sahnaga chiqdi. Balet maktabini tugatgandan so'ng, Anna tez o'sadi. U spektaklda ijro etgan rollarining endi o'z muxlislari bor edi. Keyinchalik Pavlova "Sehrlil nay", "Bayaderka" balet spektakllarida bosh rollarni ijro etadi. 1903- yili unga "Jizel" baletining bosh roli ishonib topshiriladi va yosh balerina hammani hayratda qoldiradi. Shunga oid Pavlova haqida Mixail Fokin o'zining "Qarshi oqimlar" kitobida shunday deb yozgan: "Agar men Pavlova qaysi rolni eng yaxshi yetkazib berganini aytadigan bo'lsam, uning yo'nalishi qayg'u edi. Pavlovaning jismoniy

tanasi, uning qomatida, uzun bo'yni, uzun ingichka qo'llarida chuqur qayg'u bor edi. Shuning uchun, "Jizel" va "Bayaderka" balet spektaklidagi rollari unga atalgandek edi".

Anna Pavlova 1902-yilda Mariinskiy teatrining ikkinchi solisti, 1903-yilda esa birinchi solisti bo'lib ijodiy faoliyatini olib boradi. 1905-yilda prima balerina darajasiga erishgan. 1907-yildan boshlab, Mixail Fokin truppasida ishlaydi, va o'sha yili Fokin u uchun kompozitor Sen-Saens musiqasi ostida "O'layotgan oqqush" baletini sahnalashtiradi. Bu balet Anna Pavlova uchun muvaffaqiyatga aylanadi. Deyarli butun badiiy faoliyati davomida juda katta shuhrat qozonadi va Pavlovaning eng sevimli baleti bo'lib qoladi. Prima balerinaga darajasiga erishgan Anna dunyo bo'ylab ko'plab gastrol safarlarida bo'ladi. Ilk bor 1907-yil Stokgolmda, keyinchalik esa Berlin, Praga, Kopengagenda va 1909-yili Dyagilev truppasi bilan Parijda gastrol safarlarida bo'ladi. 1910-yilda truppani tark etgach, 1913-yil Mariinskiy teatrida uning oxirgi sahnaga chiqishi bo'ldi. Anna o'z truppasini yig'ib, Londonga ko'chib o'tadi. So'ngra 40 dan ortiq davlatlarda gastrol safarlarida bo'lib, 200 dan ortiq balet spektakllarida sahnaga chiqadi. 1931-yil Anna Pavlova Gaagaga gastrol safari uchun boradi va u yerda unda yiringli plevrit kasalligi aniqlanadi. 1931-yil 23-yanvar kuni A.Pavlova ushbu kasallikdan vafot etadi. Uning o'limi hammani hayratlantiradigan afsonaga aylandi. Keyinchalik turmush o'rtog'ining hikoya qilishicha shifokorlar balerinaga jarrohlik amaliyoti o'tkazilganidan so'ng tuzalishini, ammo bitta qovurg'asini olib tashlashi haqida aytishadi. Anna bunga rozi bo'lmaydi. Sababi u bu amaliyotdan so'ng raqsga tusholmasdi. Turmush o'rtog'i, Anna o'limidan oldin unga o'girilib, past ovozda: "Menga oqqush libosini olib keling" -, deb so'raganini aytdi, shundan keyin Anna boshqa so'z aytmadi. Matbuotda bu habar juda tez tarqaldi. O'layotgan oqqush afsona bo'lib qoldi. Muxlislari uni Mariya Talyoni qabrining oldiga dafn etishlarini aytishdi, biroq balerina vasiyatiga binoan hind urf-odatlariga ko'ra yondiriladi. Uning kuli solingan urna hozirda Londondagi Golders Green krematoriyasida saqlanadi.

References:

1. В.Пасютинская, Волшебный мир танца –М.,1985.
2. Ю.Андреева. Анна Павлова жизнь в танце-М., -2021.
3. Издательство «Планета» Анна Павлова-М.,1981.
4. <https://www.culture.ru>